



ORCID ID: 0009-0008-2183-8704

YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTONDA MAFKURAVIY TARBIYA VA UNING JAMIYAT MA’NAVIY YUKSALISHIGA TA’SIRI

To‘lqin Quyliiev

Toshkent davlat agrar universiteti dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

Annotatsiya: Ushbu maqolada, Yangilanayotgan O‘zbekistonda g‘oya va mafkuralarning transformatsiyalashuvi uning boshqa xalqlar va millatlar ma’naviyatiga ta’siri, bunda jamiyat a’zolarining ongi, ma’naviy tahdidlarga qarshi kurashish, ularning xilma-xil jihatlari tadqiq qilingan. Shuningdek muallif maqolada, mafkuraviy tarbiya va uning jamiyat ma’naviy yuksalishiga ta’siri borasida mamlakatimizda jismonan etuk va ma’nan barkamol yosh avlodni voyaga etkazishga oid davlat siyosatini yangi bosqichga ko‘tarish bilan bog‘liq mavzuni bevosita maxsus tadqiqot ob’ekti sifatida o‘rganish, shu asosda amaliyot uchun zarur bo‘lgan xulosa va takliflarni ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratgan.

Kalit so‘zlar: Yangilanaayottgan O‘zbekiston, jamiyat, g‘oya, mafkura, mafkuraviy tarbiya, ma’naviy tahdidlar, yosh avlod, milliy ma’naviyat, siyosat, axloq, ta’lim-tarbiya, globallashuv, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, taraqqiyot, istiqbol.

ИДЕОЛОГИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ В МОДЕРНИЗАЦИИ УЗБЕКИСТАНА И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА НРАВСТВЕННОЕ РАЗВИТИЕ ОБЩЕСТВА

Аннотация: В данной статье исследуются трансформация идей и идеологий в модернизирующемся Узбекистане, ее влияние на духовность других народов и наций, сознание членов общества, борьба с духовными угрозами, а также их различные аспекты. Также в статье автор уделит особое внимание изучению темы, связанной с поднятием государственной политики воспитания физически зрелого и интеллектуально зрелого молодого поколения на новый уровень в нашей стране с точки зрения идеологического воспитания и его влияния на духовный рост общества, как непосредственного специального объекта исследования, и на этой основе разработать необходимые для практики выводы и предложения.

Ключевые слова: Обновление Узбекистана, общество, идея, идеология, идеологическое воспитание, духовные угрозы, молодое поколение, национальная духовность, политика, этика, образование, глобализация, национальные ценности, общечеловеческие ценности, развитие, перспектива.

IDEOLOGICAL EDUCATION IN THE MODERNIZATION OF UZBEKISTAN AND ITS INFLUENCE ON THE MORAL DEVELOPMENT OF SOCIETY

Abstract: This article examines the transformation of ideas and ideologies in modernizing Uzbekistan, its influence on the spirituality of other peoples and nations, the consciousness of members of society, the fight against spiritual threats, as well as their various aspects. Also in the article, the author paid special attention to the study of the topic related to raising the state policy of educating a physically mature and intellectually mature young generation to a new level in our country from the point of view of ideological education and its influence on the spiritual growth of society, as a direct special object of research, and on this basis to develop conclusions and proposals necessary for practice.

Key words: Renewal of Uzbekistan, society, idea, ideology, ideological education, spiritual threats, young generation, national spirituality, politics, ethics, education, globalization, national values, universal values, development, prospect.

Kirish. Bugungi kunda mafkuraviy muammolarni o‘rganishning dolzarbligi, birinchi navbatda, zamonaviy global hamjamiyatning boshidan kechirayotgan qadriyatlarining inqirozi bilan belgilanadi. Globallashuvning tobora chuqurlashib borishi turli mafkuralarning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ijobiy va salbiy ta’siri ortib borayotgan global siyosiy jarayonlar ko‘lami milliy davlatlarning jamiyatda ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash texnologiyalarini tizimli ravishda takomillashtirish orqali barqarorlikni ta’minlash hozirgi davrda milliy-ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash masalasi dolzarb vazifa hisoblanadi.

Mana shunday bir jarayonda milliy va umuminsoniy ma’naviyatning turli ta’sirlarga uchrash jarayoni ko‘z oldimizda sodir bo‘lmoqda. Yuksak taraqqiyotga erishgan davlatlar dunyoga etakchilik qilayotgan bir davrda, hali o‘zligini anglashga ulgurmagan, endi rivojlanish yo‘liga o‘tgan millat va xalqlarning turli ma’naviy tahdidlarga bardosh berish masalasi tobora dolzarblashib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.‘Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida “oldimizga qo‘ygan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbai bo‘ladigan milliy g‘oyani rivojlantirishimiz zarur. Xususan, milliy o‘zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o‘rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashimiz lozim”⁵⁵ligi shart qilib qo‘yildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning davlat va jamiyatni boshqarishning birinchi nazariy asosi bo‘lgan “O‘zbek modeli”, ilmiy-metodologik manba sifatidagi asarlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.‘Mirziyoyev asarlari, xususan, davlat rahbari tashabbusi bilan ishlab chiqilgan O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi, YAngi

⁵⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018 yil 27 dekabr.

O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi va keng ko‘lamli islohotlar olib borish borasidagi g‘oyalari ushbu tadqiqotga ilmiy-metodologik asos bo‘lib xizmat qilsa, sohaga oid qonun hujjatlari, Prezident farmonlari, qarorlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar tadqiqotning uslubiy bazasi bo‘lib xizmat qiladi.

Mafkuraviy masalalar ko‘pgina xorijlik mashhur olimlarning tadqiqot ob‘ektiga aylangan. O‘rta asrlarda g‘arb olimlari davlat va jamiyat hayotiga tahdidlar masalasiga doir siyosiy qarashlar takomillashtirilgan. Xususan, M.Veber, E.Kant, rus olimlari N.Berdyaev, V.Fedotova asarlarida mafkuraviy tahdidlarning oldini olish va bu murakkab jarayonda fuqarolarning siyosiy madaniyatini oshirish zarurligi asoslangan.

Respublikamiz olimlari tomonidan ham so‘nggi yillarda g‘oya va mafkuralar transformatsiyasi mohiyatini ochib berish bilan bir qatorda, milliy g‘oya va mafkuraning turli qirralarini kengroq yoritish, yoshlarda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash, g‘oyaviy tarbiya jarayonida ularning ehtiyoj va manfaatlarini inobatga olishning ahamiyati kabi masalalar tahliliga ham alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Shu nuqtai-nazardan qaraganda, Q.Nazarov, N.Jo‘raev, M.Quronov, I.Ergashev, S.Otamurodov, S.Mamashokirov, A.Ochildiev, F.Ravshanov, B.T.To‘ychiev, O‘.M.Abilov, T.Alimardonov, M.M.Gafarli, A.CH.Kasaev, F.Jo‘raqulov, M.Qirg‘izboev, M.Qaxxarova kabi olimlarning ilmiy ishlari tadqiqotimiz oldiga qo‘yilgan vazifalarni bajarishda muhim ahamiyat kasb etadi⁵⁶. Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosati, ma‘naviy tahdidlarga qarshi kurashish tajribasi bilan bog‘liq masalalar tahliliga bag‘ishlangan doktorlik dissertatsiyasi doirasidagi tadqiqotlar qatoriga Q.Quranboev, S.Jo‘raev, D.Bo‘ronova, F.Ravshanov, M.YUldashev, Z.Qodirova, E.Bobomurodov, G.Tulenova, V.Quchqarov kabi olimlarning izlanishlari va ilmiy ishlarini kiritish mumkin.

Jumladan, M.Yuldashevning doktorlik dissertatsiyasi mustaqillik sharoitida mamlakatimiz yoshlari siyosiy madaniyati va ma‘naviy-mafkuraviy qiyofasini shakllantirish, E.Bobomurodov jamiyatimizning ma‘naviy yangilanishi, Z.Qodirovaning doktorlik dissertatsiyasida jamiyatimiz hayotining barcha sohalarini isloh qilishda yoshlarning ijtimoiy faolligi, S.Jo‘raevning doktorlik dissertatsiyasida esa respublikamizda o‘tish davrida yoshlarga oid davlat siyosati shakllanishi xususiyatlari, G.J.Tulenovaning doktorlik dissertatsiyasida yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda ma‘naviy omilning roli ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilingan.

NATIJALAR. Milliy istiqlol g‘oyasi o‘tgan yillar davomida xalqimizni “Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot” maqsadi atrofida birlashtirishga xizmat qildi. O‘tgan yillar davomida xalqimiz o‘zining boy o‘tmishi, madaniyati, ma‘naviy qadriyatlarini tikladi. Bunda milliy g‘oya xalqimizning tarixiy tafakkurini boyitishning g‘oyaviy manbai bo‘lib xizmat qildi. Milliy mafkuramizning asosiy g‘oyalari bo‘lgan Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, Xalq farovonligi, Komil inson, Ijtimoiy hamkorlik, Millatlararo totuvlik va Dinlararo bag‘rikenglik tushunchalari xalqimiz tafakkuriga singdi. Shu bilan birgalikda, sobiq ittifoqni tiklashga qaratilgan g‘oyalarga

⁵⁶ Mazkur tadqiqotchilar asarlari dissertatsiyaning “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati”da berilgan.

ham qarshi kurashda milliy istiqlol mafkuramiz o‘z vazifasini to‘liq bajara oldi deb aytishimiz mumkin.

Prezidentimiz Sh.‘Mirziyoyev tomonidan belgilab berilgan “Ma‘naviy yo‘nalishlarimiz iqtisodiy yo‘nalishlardan o‘n qadam oldinda yurishi kerak. Ana shunda biz hozirda qilayotgan katta-katta rejalarimiz, dasturlarimiz amalga oshadi”⁵⁷, shaklida ifodalangan metodologik prinsip ma‘naviyat, milliy g‘oya, milliy mafkuraning O‘zbekistondagi strategik va amaliy vazifalarini, rolini, o‘rnini, ahamiyatini asoslab berdi

Mafkuraviy-g‘oyaviy targ‘ibot avvalo murakkab ijtimoiy axborot kommunikativ jarayondir. SHu bois tadqiqotimiz maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib, dastlab targ‘ibot menejmenti masalasini oydinlashtirib olamiz. Jahonning rivojlangan davlatlarida targ‘ibot masalasi aynan shu nuqtai nazardan tushuniladi va bunda ijtimoiy kommunikatsiya menejmenti masalalari katta ahamiyat kasb etadi.

MUHOKAMA. Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni boshqaruv kadrlariga qat‘iy talablar qo‘yadi, ularning ishbilarmonlik sifatleri, ishlab chiqarish oldida turgan masalalarni belgilaydi. Milliy g‘oya targ‘iboti bo‘yicha xorijiy tajribalarni umumlashtirgan holda shuni aytish mumkinki, g‘oya va mafkuralar asosan,

- 1) moddiy farovonlik;
- 2) insonlarga cheksiz erkinliklarni taqdim etish;
- 3) diniy qadriyatlarni jamiyatda ustivorligini ta‘minlash;
- 4) milliy mansublik va davlat tushunchasini aynanlashtirish asosiga qurilgan.

Moddiy va ma‘naviy to‘kislikka asoslangan milliy g‘oya va mafkura AQSH davlatini misol qilib keltirish mumkin. AQSHda xalqni birlashtiruvchi va harakatga keltiruvchi kuch sifatida “Amerika orzusi” (American Dream) g‘oyasi asosiy o‘rinni egallagan. Uning asosini millat, elat, din omillari emas, moddiy farovonlik va kapital tashkil etadi. AQSH o‘z fuqarolarini dunyoning eng kuchli va farovon davlati ekanligiga ishontiradi. Fuqarolar esa, AQSHga tahdid ularning farovonligiga tahdid sifatida qabul qiladi.

1892 yildan boshlab AQSHning barcha bog‘cha va maktablarida bayroqqa sodiqlik qasamyod marosimi o‘tkazib kelinadi. Qasamyod matni quyidagicha, “Men respublika va AQSH bayrog‘iga sodiqlikka qasamyod qilaman. U hammamiz uchun adolat, erkinlik Xudo huzuridagi yagona millat ekanligimiz ramzidir”⁵⁸.

Mazkur tadbir AQSHning ayrim shtatlarda haftada bir marta, ba‘zilarida bir oyda bir marta o‘tkaziladi. Unda barcha o‘qituvchi va o‘quvchilar ishtirok etishi majburiydir. Ushbu qasamyod matni yoshlar va keng jamoatchilik ongiga turli kino, seriallar, multfilmlar asosida doimiy singdirib boriladi. SHuningdek, ushbu tadbirlar rasmiy davlat tadbirlari doirasida ham doimiy ravishda o‘tkaziladi.

⁵⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 29 dekabr kuni milliy kino san‘ati va kinoindustriyani rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar tahlili va bu borada mavjud muammolarni hal etish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishda so‘zlagan nutqidan. Kun Uz. 13:43 / 30.12.2017

⁵⁸ Library of Congress. American Memory. [«What is the American Dream?», lesson plan.](#)

“Amerika orzusi” haqidagi tushuncha odamlarning ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, teng qadr-qimmatga ega bo‘lishi g‘oyasidir va bu Amerika konstitutsiyasida ham o‘z aksini topgan: Mustaqillik Deklaratsiyasining ikkinchi moddasida “ajralmas huquqlar” sifatida “Hayot, Ozodlik va baxtga intilish” kabi g‘oyalar kiritilgan bo‘lib, bu Amerikani butun dunyodan kelgan ko‘plab muhojirlar uchun o‘ziga jozibador qiladi.

Agar Amerika tizimi Amerika siyosatining skeleti bo‘lsa, Amerika orzusi uning ruhidir.

Amerika orzusi - bu qonuniy yoki noqonuniy bo‘lsin, har bir AQSH fuqarosi shon-shuhrat, muvaffaqiyat va boylikka erishish imkoniyatiga ega ekanligiga ishonishdir. Ushbu orzuning amalga oshishi ko‘p jihatdan AQSH aholisining ma’naviy birligining asl tarkibiy qismi, uning ma’naviy aloqasi bo‘lib, AQSH aholisini baxt va farovonlik izlashda birlashtiradi. Amerika orzusi butun milliy siyosiy tizimning “yuragi (“ruhi”) bo‘lganligi sababli, tizimning o‘zi unga erishishga qaratilgan. AQSHning har bir fuqarosi unga ajoyib kelajak haqida o‘z g‘oyalarini kiritadi.

Quyidagi tushunchalar Amerika orzusidan ajralmas ekanligi odatda qabul qilinadi:

1. Har bir shaxs uchun shaxs erkinligi va tadbirkorlik erkinligi;
2. Farovonlikka erishish uchun huquq va imkoniyatlarning universal tengligi, qoida tariqasida moddiy;
3. “O‘zini o‘zi yaratgan odam” (ya’ni, mustaqil, mehnat evaziga hayotda muvaffaqiyatga erishgan shaxs);

Amerika orzusi iste’mol jamiyatida baxtning ma’lum bir standartidir. Garchi AQSH ning ko‘plab aholisi uchun Amerika orzusi katta hovlisi, avtomobili, katta do‘stona oilasi va do‘stona qo‘shnilari, umumiy farovonlik va farovonlik bilan o‘z erlarida o‘z daromadlari evaziga qurilgan o‘z uyi bilan belgilanadi.

Yana bir muhim tamoyil Amerika orzusi mafkurasida yashiringan. Insonning qadr-qimmatini uning ijtimoiy-iqtisodiy holatiga bevosita bog‘liqdir. Muvaffaqiyat odamni avliyolar toifasiga tenglashtiradi, mag‘lub esa hamma chetlab o‘tadigan chetlangan odamga aylanadi. Bu Amerika orzusining ikkinchi tomoni.

G‘arbiy Evropada joylashgan kichik mamlakatlar o‘z mafkuraviy mexanizmlarini “insonlarga cheksiz erkinliklarni taqdim etish” g‘oyasi asosida olib boradi. Ushbu mexanizmlar asosida fuqarolarga davlatni qo‘llab-quvvatlash bu - ularning huquq va erkinliklarini ta’minlashning asosiy kafolati sifatida ongiga singdiriladi. Misol uchun, Fransiya davlatida insonlar ongiga milliy g‘oyani singdirishda umume’tirof etilgan qoidalar konsepsiyasi tanlab olingan. Fuqarolarni davlat maqsadlari uchun yo‘naltirishda jaxonda e’tirof etilgan va xalqaro huquqiy normalar mamlakat milliy maqsadlariga uyg‘unlashtirilgan va natijada barcha uchun birdek ta’sir kuchiga aylangan.

Shuni ham aytib o‘tish kerakki, “Barcha narsa inson va uning manfaatlarini uchun” degan g‘oyaning kuchayishi ayrim kishilar tasavvurida davlat fuqarolarning cheksiz erkinliklarini maksimal darajada qondirilishini ta’minlashi kerak degan noto‘g‘ri tasavvurni shakllantirmoqda. Bu esa fuqarolar tomonidan mohiyatan antigumanistik istaklarni ham

qo‘llab-quvvatlanishiga olib kelmoqda. Masalan, bir jinsli insonlar o‘rtasidagi nikoh, gedonizm, sado-mazoxizm kabi insoniy axloqqa to‘g‘ri kelmaydigan salbiy illatlar insonning tabiiy ehtiyoji, tabiiy huquqi sifatida baholanmoqda. Bugungi kunda ma‘naviy-ma‘rifiy, milliy tarbiya doirasidan tashqarida qolgan yoshlar dunyoda «Lost generation», ya‘ni “boy berilgan avlod”, deb nom oldi.

Diniy va milliy asoslarni uyg‘unlashtirgan holda aholini birlashtirgan mafkuralar bugungi kunda Isroil, eron, Saudiya Arabistoni, Hindiston, Myanma, qisman YAponiya va Xitoy mafkuraviy siyosatida o‘z aksini topgan bo‘lib, davlat din yoki millat homiysi, davlat boshlig‘i diniy yoki milliy rahnamo sifatida namoyon bo‘ladi. Fuqarolar diniy yoki milliy rahnamo atrofida jipslashadi.

YAponiya mafkurasini ko‘radigan bo‘lsak, unda “tarix-sintoizm-konfutsiylik-samuraylik irodasi” qadriyatlar tizimi asosida ularning milliy g‘oyasi shakllangan. YAponiyada fuqarolar ongiga milliy g‘oyani singdirish usullari sifatida qadriyatlar tizimidan samarali foydalanadi. Ularda milliy g‘oya mamlakat iqtisodiyotining tayanchi sifatida asosiy o‘ringa ko‘tarilgan. Uni biz quyidagi bosqichlarda ko‘rishimiz mumkin: Milliy g‘oya – milliy iqtisod – milliy taraqqiyot.

YAponiyada bundan tashqari yagona hudud – yagona millat konsepsiyasi mamlakatning ta‘lim tizimi va boshqa tizimlarda ham keng qo‘llaniladi. YAponiyada milliy tarixiy qaxramonlari, afsonalarining millatga keng ko‘lamda tanitilishi natijasida yaponlarning ichki ruhiyatini yagona YAponiya uchun safarbar qilish mexanizmiga aylantirilgan. Hukumat istalgan paytda ushbu mexanizmni samarali harakatga keltira oladi. YAponiyada bundan tashqari, “Millat, Vatan, Taqdir” kabi tushunchalar butun millatni jipslashtirish yo‘lida uyg‘unlashtirildi.

Buning uchun milliy-insoniy fazilatlarni maxsus tashkil qilinuvchi tarbiyaviy vaziyatlarda, tarbiyaviy soatlarda o‘quvchilarga namoyish qilish (masalan, “milliy odob”ning qanday namoyon bo‘lishini nafaqat tushuntirish, balki namuna sifatida ko‘rsatish) va o‘quvchi yoshlar bilan milliy odob mashqlarini tashkil qilish talab etiladi. Masalan, YAponiya maktablarida “yapon xulq-atvori” darsi ishlab chiqilgan bo‘lib, har bir maktabda majburiy olib boriladi. Bu darsda muomala, odob-axloqning eng nozik qirralarigacha maxsus o‘rgatiladi, mashq qildiriladi. Xullas, milliy tarbiyaviy ta‘lim milliy fazilatlarni o‘quvchilarning dastlab birinchi, keyin esa ikkinchi signallar sistemasiga aylantirishga, pirovard natijada esa, o‘quvchilarning shaxsiy illatlariga, odatlariga aylanishida pedagogik texnologiya vazifasini o‘taydi⁵⁹.

Yapon boshlang‘ich maktab o‘qituvchilari va bog‘cha tarbiyachilari ishlashlari uchun ma‘naviy tarbiya bo‘yicha maxsus kursda o‘qib, sertifikat olishi majburiy hisoblanadi. Ularga boshlang‘ich sinflardan boshlab o‘quvchilarga yapon millati ruhini singdirish eng asosiy vazifa etib belgilangan. Mafkuraviy tarbiya ta‘lim tizimida “mehnatsevarlik, oila, maktab, millat va guruh ahloqi” negizida tashkil etilgan. Oliy ta‘lim tizimida talabalarga “Har bir talaba kelajak avlodlarning madaniy rivojlanishi uchun qattiq o‘qishga majbur” tamoyili singdiriladi.

⁵⁹ Quronov M. Milliy tarbiya. Toshkent, “Ma‘naviyat”, 2007. 21-b.

YAponiyada yana bir muhim tarbiya turi jamiyat e’tiboridan qolish “Yapon shaxsiyati” uchun eng og‘ir jazo hisoblanadi.

Xitoy davlatida fuqarolar ongiga milliy g‘oya va milliy ongni singdirishda Konfutsiy ta’limotiga murojaat qilingan. Xitoy Konfutsiy ta’limotidan diniy ta’limot sifatida emas, balki ahloqiy asos sifatida foydalanadi. Bu esa, mamlakatda ta’limotga nisbatan mutaassib kayfiyatning shakllanishini oldini oladi va o‘z navbatida zamonaviy Xitoy qarashlariga oson moslashishiga sabab bo‘ldi. Konfutsiylik axloqi besh asosiy ustunga qurilgan. Bular:

1. YAxshilik 仁

2. To‘g‘rilik 义

3. Poklik 礼

4. Donolik 智

5. Ishonchlilik 信ni tashkil qiladi. Ushbu axloqiy tamoyillar Xitoy ma’naviy-mafkuraviy siyosatida ustuvor mavqega ega.

Xitoyda ma’naviy-mafkuraviy tarbiya tizimi “Ona Vatanga xizmat qilish va sodiq bo‘lish” g‘oyasi asosida tashkil etilgan. Yoshlikdan bolalarga shaxsiy ehtiyojlar va jamoaviy ehtiyojlar o‘rtasidagi balansni saqlash o‘rgatib boriladi. Shaxsiy ehtiyojlarni qondirish uchun harakat qilish jamoaviy ehtiyojlarga daxl qilmasligiga alohida urg‘u berilgan. Ularda qattiqo‘llik va qat’iy tartib intizom ustuvor hisoblanadi. Xitoyning afsonaviy podsholaridan bo‘lgan YAoning “Mehr-oqibat, yaxshi xulq-atvor, bilim, adolat va sharaf xitoy millatining uzoq yashashining kafolatidir” degan fikri bugungi kunda ham tarbiyani tashkil etishda o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Millat va milliy davlat tushunchasini aynanlashtirish omilidan Germaniya, Turkiya, Koreya respublikasi kabi bir qator davlatlar milliy mafkurasini shakllantirishda keng foydalanishmoqda.

Germaniyada milliy g‘oya nemis millati va davlati birligi negizida shakllangan bo‘lib, garchi ikkinchi jahon urushidan keyin rasman nemis millatchiligi rad etilsada, zamonaviy Germaniya mafkurasi “nemis millatining o‘ziga xosligi”ning postmodern va postindustrial talqini asosida qayta ishlanib, Germaniya milliy birligining asosiy kuchini tashkil etmoqda.

Germaniyada ma’naviy tarbiya inson tug‘ilgandan boshlanadigan uzviy jarayon bo‘lib, inson tug‘ilganidan to ish faoliyatini yakunlaguncha davom etadi. Ushbu tarbiyada asosiy urg‘u “nemis milliy xarakteri”ni shakllantirishga qaratilgan. Qat’iy tartib va intizomga itoat etishga katta e’tibor qaratilgan. Bog‘chalarda bolalarning o‘ziga xos xususiyatlardan kelib chiqib, tarbiya turi aniqlanadigan bo‘lsa, mehnat jamoalarida ish samaradorligi va vatanparvarlik tamoyillari orqali amalga oshiriladi.

Nemis oilasiga mansub xonadonlarda bolalar xonasi bo‘lishi majburiy etib belgilangan. Nemis oilalarida bolalarning kun tartibi qat’iy belgilangan bo‘lib, bola 8 yoshgacha TV ko‘rishi mumkin emas, degan qat’iy qoidaga amal qiladi. Uning o‘rniga bolalar rasm chizish va musiqa mashg‘ulotlari bilan band bo‘ladi. Kechki uyqu payti qat’iy 20:00 qilib belgilangan. Ota-onalar

haftada kamida bir marotaba farzandlari bilan xiyobonga va jamoat dam olish joylariga borishi shart deb qabul qilingan. Germaniyada farzandga uning ota-onasidan boshqa shaxs tanbeh berishi mumkin emas. Germaniyada barcha OAV milliy g‘oyaning targ‘ibotchisi hisoblanadi.

Janubiy Koreya Respublikasida ham milliy g‘oyaning asosi koreys millatining o‘ziga xosligi hisoblanadi. Milliy o‘ziga xoslik asosan urf-odatlar, axloqiy ideallar orqali singdirib boriladi. YOshlarni tarbiyalashda oila instituti asosiy hisoblanadi. SHuning uchun koreys oilalarida umumiy budjetining 56%i farzand uchun sarflanadi. Farzandning dastlabki tarbiyasi bilan faqat onalar mashg‘ul bo‘lishi belgilab qo‘yilgan. Tarbiyaning dastlabki bosqichida onalar o‘z farzandlariga koreys milliy an‘nalarini o‘rgatishadi.

Aksariyat SHarq mamlakatlarida bo‘lgani singari Janubiy Koreyada ham targ‘ibot texnologiyasining eng samarali usuli sifatida jamiyatdagi norasmiy liderlar va tarixiy qahramonlarga katta urg‘u beriladi.

Rivojlangan mamlakatlarda davlat maqsadlarini xalq maqsadlariga uyg‘unlashtirish, yagona hudud – yagona xalq tushunchasi shakllantirilganligi, vatan va davlat, xalq va millat tushunchalari g‘oyaviy nuqtai nazardan birlashtirilganligi mamlakat aholisining umumiy maqsadlar yo‘lida birlashuvida muhim ahamiyat kasb etgan.

Inson e‘tiqodsiz, g‘oyasiz, fikrlashsiz yasholmaydi. SHaxs va uning e‘tiqodi masalasi muhim muammolardan bo‘lib, uning shakllanishi mohiyatan ijtimoiy omillarga bevosita bog‘liq, deb qaraladi. Bu masalaga e‘tiborning ortib borayotganining boisi shundaki, shaxsdagi mafkuraviy immunitetning shakllanishida undagi ezgu g‘oya va imon-e‘tiqod muhim ahamiyatga egadir. Agar biz yoshlarimizda bolalikdan boshlab sog‘lom e‘tiqod va yuksak dunyoqarashni shakllantira olsak, ular ma‘naviyati boy, mus-taqil fikrli va olijanob shaxslar bo‘lib kamolga etadi. Shu ma‘noda, shaxs e‘tiqodi undagi shunday barqaror va teran fikr, tasavvurlar, bilimlar majmuiki, mafkuraviy dunyoqarash hamda milliy g‘oyalar aslida ana shunday e‘tiqodlar asosida shakllanadi.

Shaxs tarbiyasining muhim yo‘nalishi — bu g‘oyaviy tarbiyadir. Bu — inson ongi va tushunchalari tizimida hayot haqidagi falsafiy, siyosiy, huquqiy, diniy, estetik, axloqiy, badiiy, kasbiy qarashlarni maqsadli shakllantirish jarayonidir. Har qanday tarbiya jarayoni oxir-oqibat, o‘z maqsad va mohiyatiga ko‘ra g‘oyaviy tarbiyadir. Chunki oilani olamizmi, bolalar bog‘chasini, mahalla, maktab, kollej, litsey, universitet yoki akademiyani olamizmi — hammasida beriladigan ta‘limtarbiya jarayoni talaba va tinglovchilar dunyoqarashini kengaytirish, ularning ongini ilmiy asoslangan bilimlar bilan boyitish hamda jamiyat uchun, uning ravnaqi uchun kerak bo‘lgan sifatlarni kamol toptirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Bu ishlar bolaning dunyo haqidagi, olamning rivojlanish qonuniyatlari, insoniy munosabatlar borasidagi o‘ziga xosliklar, axloq tamoyillari, go‘zallik haqidagi tushunchalarini kengaytirishga xizmat qiladi. Bu tom ma‘noda mafkuraviy tarbiyaning asosi, poydevoridir. SHuning uchun mafkurasiz inson, mafkurasiz guruh, millat, xalq, jamiyat bo‘lishi mumkin emas.

Nima uchun bir jamiyat, ijtimoiy guruh (masalan, siyosiy partiya, ijtimoiy harakat) mafkurasini boshqa bir ijtimoiy guruhga majburan singdirish noto‘g‘ri. Chunki mafkura —

muayyan ijtimoiy guruh a‘zolariga xos o‘zlaridagi mavjud ehtiyojlar, tilak, orzu-umid hamda manfaatlar asosida o‘sha guruhning qarashlari, tasavvurlari dunyosi hamda g‘oyalarining mahsuli sifatida yaratiladi. Unda boshqalar manfaatlari ifodalanmasligi ham mumkin. Bas, shunday ekan, o‘zgalar manfaatini ko‘zlovchi mafkurani xalq ongiga zo‘rlab singdirib bo‘lmaydi.

Chunki har bir jamiyat rivojining o‘ziga xos qonuniyatlari mavjudki, o‘sha jamiyat a‘zolari ularni o‘zlarining tub maqsad va manfaatlari asosida shakllantiradi.

Har qanday mafkuraviy tarbiyaning maqsadi — jamiyatning har bir a‘zosi va ular timsolida har bir ijtimoiy qatlam, guruhning tarbiyaviy darajasini ta‘minlashdir. Bu, pirovard natijada, o‘sha jamiyat rivojiga turtki beruvchi ilg‘or g‘oyalarning har bir fuqaro tomonidan ongli ravishda o‘zlashtirilishini, uning tafakkur va fikrlash tarziga aylantirilishini ta‘minlaydi. SHu ma’noda, milliy g‘oya O‘zbekistonda yashab, ijod qilayotgan har bir fuqaro ongi va shuurida asriy milliy qadriyatlarimiz, xalqimizning bugungi va kelgusidagi manfaatlarini ifodalovchi eng sog‘lom g‘oya va fikrlar - xalq tafakkuri tarzida o‘z ifodasini topishi lozim. Bu jihat mafkuraviy tarbiyaning bosh xususiyatlaridan biridir. Mafkuraviy tarbiyaviylik, eng avvalo, yuksak e‘tiqod, imon, Vatan va xalq oldidagi mas‘uliyat, vatanparvarlik, fidoiylilik kabi fazilatlarda namoyon bo‘ladi.

O‘zbekistonning mustaqil taraqqiyot strategiyasi, o‘zbek xalqining buyuk davlat barpo etish borasidagi maqsad-muddaolari milliy g‘oyani yoshlar qalbi va ongiga singdirishning ustuvor yo‘nalishlaridandir. Bu jarayon jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olish, ta‘lim-tarbiya, targ‘ibot va tashviqotning samarali usul va vositalaridan oqilona foydalanishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda asrlar mobaynida shakllangan, avloddan-avlodga bebaho meros sifatida o‘tib kelayotgan urf-odat, marosim va bayramlar ham milliy g‘oyaning asosiy g‘oyalarini singdirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Xususan, Mustaqillik, Navro‘z, O‘qituvchilar va murabbiylar, Xayit bayramlari, Xotira va qadrlash kuni kabi bayram va marosimlarimizdan jamiyat hayotiga zamonaviy mazmun baxsh etish yo‘lida oqilona foydalanilmoqda.

Bu urf-odat va an‘analarning asosiy qismi oilada va oila a‘zolarining bevosita ishtirokida o‘tkaziladi. SHuning uchun ham har bir oilaviy an‘ana mafkuraviy tarbiyaning muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Masalan, insonparvar, yuksak e‘tiqodli, bag‘rikeng, mehr-oqibatli odamlarni voyaga etkazishda tolerantlik, insoniylik tamoyillari muhim o‘rin tutadi. Har bir o‘zbek oilasida muqaddas sanaladigan mehmonnavozlik, qiz va o‘g‘il bolalar tarbiyasi borasida maxsus an‘analarning mavjudligi, yil mavsumiga ko‘ra oila a‘zolari ishtirokida o‘tkaziladigan turli marosim va tadbirlar sog‘lom mafkuraviy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bu o‘rinda har bir ota-ona o‘z farzandining maktabgacha tarbiyasi uning keyingi rivojida qanchalik ahamiyat kasb etishi, bu davr uzluksiz ta‘lim va tarbiyaning muhim bosqichi ekanini anglab etishiga erishish uchun amaliy ishlar olib borilmoqda. Bunda oilaning maktabgacha ta‘lim va umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari tizimiga izchil uyg‘unlashuviga erishishni nazarda

tutilgan. YA'ni oila-ta'lim muassasasi-maxalla konsepsiyasi ishlab chiqilgan va mafkuraviy ta'lim tizimining o'ziga xos tizimi yo'lga qo'yilgan.

O'zbekistonda mustaqillikdan keyin qayta tiklangan milliy qadriyatlarimizdan bo'lgan o'zini o'zi boshqarishning o'ziga xos modeli bo'lgan mahalla xalqimizning azaliy qadriyatlari, udumlari, urf-odatlar va an'alariga tayangan holda, fuqarolarga singdiriladigan ulkan mafkuraviy, tarbiyaviy vazifalarni bajarib kelmoqda. Keksalarning yoshlarga beradigan pandu nasihati, kattalarning shaxsiy ibrati, jamoaning hamjihatligi misolida odamlar ongiga ezgulik g'oyalari singdirib boriladi. Mahalla, avvalo, sog'lom ijtimoiy muhitdir. Bu erda kuchli ta'sirga ega bo'lgan jamoatchilik fikri, mahalla ahlining xulq-atvori, o'zaro munosabatlarini adolat va ma'naviy mezonlar asosida tartibga solib turadigan tarbiyaviy muassasadir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida jamiyatning g'oyaviy birlashuvi zaruratini bugungi kundagi global o'zgarishlar sharoiti bilan belgilash mumkin. Dunyo miqyosida geosiyosiy maydonidagi o'zgarishlar, tamaddaunlar to'qnashuvining tezlashib, axborotlashuv jarayonining kengayib borishi oqibatida sodir bo'layotgan g'oyaviy-mafkuraviy tahdidlar, axborot-psixologik xurujlarga qarshi kurash borasida jiddiy fikrlashni taqozo etmoqda. Yangi O'zbekistonda milliy g'oya targ'iboti mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy siyosatning asosiy tamoyil va ustuvor yo'nalishlariga mos bo'lib, hozirgi globallashuv va ma'naviy tahdidlar tobora kuchayib borayotgan davrda aholi, ayniqsa yoshlarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, xalqimizni milliy g'oya asosida birlashtirish, bunyodkor ishlarga safarbar qilish, Vatan ravnaqi yo'lida daxldorlik, amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik ruhida tarbiyalash bilan bog'liq dolzarb vazifalar va ularni hal etish yo'llari, keng jamoatchilik, davlat va nodavlat tashkilotlar, oila, mahalla, ta'lim-tarbiya institutlarining bu boradagi roli va ahamiyatini, o'zaro hamkorligiga tayangan holda amalga oshirilishini belgilab berdi.

Dunyoda global miqyosda turli tajovuzkor, buzg'unchi g'oyalar zamonaviy axborot texnologiyalari orqali butun dunyoga tarqalmoqda, jahonda axborot xuruji, ma'naviyat va madaniyat niqobi ostida g'oyaviy-mafkuraviy tahdidlar kuchaymoqda. Shu bois aholining keng qatlamlarida xususan, yoshlarda milliy g'oyaga sodiqlik, vatanparvarlik tuyg'ularini, yuksak axloqiy va estetik me'yorlari va qarashlarini shakllantirishda ma'naviy-ma'rifiy ishlarga e'tibor qaratish tobora oshib bormoqda. Ayni vaqtda ijtimoiy tarmoqlardan tarqatilayotgan "ommaviy madaniyat" namunalari ta'sirida yoshlar tarbiyasiga rahna soluvchi buzg'unchi g'oyalar ta'sirida jinoyatchilik, diniy ekstremizm va terrorizm ta'siriga tushish, milliy qadriyatlarga e'tiborsizlik kabi salbiy illatlarni namoyon bo'layotganligi bugun barchamizdan teran fikrlashni taqozo etayotir. Zero, bugungi globallashuv shiddati bugungi kunda g'oyalari aniq va sog'lom, etuk va insonparvar, e'tiqodi butun, bugungi o'ta tezkor zamonda har qanday yot g'oyalarga qarshi kurashuvchan mafkuraviy immuniteti mustahkam shaxslarni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018 yil 27 dekabr.
2. Mazkur tadqiqotchilar asarlari dissertatsiyaning “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati”da berilgan.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 29 dekabr kuni milliy kino san’ati va kinoindustriyani rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar tahlili va bu borada mavjud muammolarni hal etish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishda so‘zlagan nutqidan. Kun Uz. 13:43 / 30.12.2017
4. Library of Congress. American Memory. [«What is the American Dream?», lesson plan.](#)
5. Quronov M. Milliy tarbiya. Toshkent, “Ma’naviyat”, 2007. 21-b.